

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

NURMATOV OZODBEK RAVSHANBOY O‘G‘LI

**CdTe:Ag, Cu, Cdva Sb₂Se₃:Se ASOSIDAGI YUPQA POLIKRISTALL
PARDALARDA YANGI FOTOELEKTRET HODISALAR**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Nurmatov Ozodbek Ravshanboy o'g'li

CdTe:Ag, Cu, Cd va Sb₂Se₃:Se asosidagi yuqqa polikristall
pardalarda yangi fotoelektret hodisalar..... 3

Нурматов Озодбек Равшанбой угли

Новые фотоэлектрические явления в тонких
поликристаллических пленках CdTe:Ag, Cu, Cd и
Sb₂Se₃:Se..... 24

Nurmatov Ozodbek Ravshanboy ugli

New photoelectret phenomena in thin polycrystalline films of
CdTe:Ag, Cu, Cd and Sb₂Se₃:Se 46

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI FIZIKA-
MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI ILMIY
DARAJASINI BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

NURMATOV OZODBEK RAVSHANBOY O‘G‘LI

**CdTe:Ag, Cu, Cdva Sb₂Se₃:Se ASOSIDAGI YUPQA POLIKRISTALL
PARDALARDA YANGI FOTOELEKTRET HODISALAR**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/FM1200 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona poltexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Nosirjon Xaydarovich
fizika-matematika fanlari doktori, professori

Rasmiy opponentlar:

Mussayeva Malika Anvarovna
fizika-matematika fanlari doktori, professori

Abdukadirov Abduvaxit Gapirovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiyaning himoyasi Farg‘ona politexnika instituti huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2020.FM.106.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__»__ soat __ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150107, Farg‘ona sh. Farg‘ona k. 86 uy. Tel: (+998 73) 241-12-06, faks (+998 73) 241-12-06, e-mail: uzferfizika@mail.ru, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona politexnika institutining axborot–resurs markazi ilmiy-uslubiy bo‘limida tanishish mumkin. (__ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150107, Farg‘ona sh. Farg‘ona k. 86 uy. Tel: (+998 91) 328-32-69).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

N.A. Sultanov

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi
Ilmiy Kengash raisining o‘rinbosari, f-m.f.d.,
professor

B.J. Axmadaliyev

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi
Ilmiy Kengash ilmiy kotibi, f-m.f PhD,
dotsent v.b.

S.M. Otajonov

Falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi
Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f-m.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mikroelektronika va fotoenergetika sohasida istiqbolli yo‘nalishlardan biri II-VI guruhlariga mansub, yangi fizik xususiyatlarga ega bo‘lgan binar yarim o‘tkazgich birikmalar asosidagi materiallarni yaratish hisoblanadi. Chunonchi, keng taqiqlangan zonali yarim o‘tkazgichlar CdS, CdSe, CdTe da fotoelektret effekt, ya’ni fotoelektret holatning shakllanishi kuzatiladi. Bu effekt fotogeneratsiyalangan erkin zaryad tashuvchilarning tashqi elektr maydon ta’sirida chuqur kirishma sathlarda notekis taqsimlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u uzoq vaqt davomida saqlanadi. Bugungi kunda tashqi qutblovchi maydonsiz fotoelektret holat kuzatiladigan yarim o‘tkazgich yupqa parda tuzilmalarni olish va o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda ayni paytda kadmiy xalkogenidli yupqa parda tuzilmalarning elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarini o‘rganish hamda ular asosida tabiiy sharoitlarda ishlaydigan fotorezistorlar, fotokalitlar va turli sensorlarni yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Yuqori fotoelektret holat parametrlariga ega bo‘lgan fotovoltaik yupqa pardalar asosida tashqi qutblovchi maydonsiz fotoelektretlar olish texnologiyasi va ularni tashqi ta’sirlar orqali maqsadli boshqarish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli, CdTe:Ag, Cu, Cdva Sb₂Se₃:Se yarim o‘tkazgich yupqa pardalarda tashqi qutblovchi maydonsiz anomal fotovoltaik effekt yordamida fotoelektret holatni o‘rganish va ularni olish texnologiyasini ishlab chiqish kondensirlangan holat fizikasi sohasidagi dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda yarim o‘tkazgich materiallarning elektrofizik xususiyatlarini o‘rganishga, jumladan, yarim o‘tkazgichlarda oraliq bosqichsiz quyosh energiyasidan elektr energiyasi olishning istiqbolli usullarini yaratishga qaratilgan kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqda va ma’lum natijalarga erishilmoqda. 2022–2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida «... iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash, hayotning barcha sohalariga “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini faol joriy etish, energiya samaradorligini oshirish...» kabi aniq vazifalar belgilangan¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mavjud an’anaviy energiya manbalarini takomillashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish, arzon, yuqori ishonchli, ekologik toza va xavfsiz muqobil energiya manbalarini yaratish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida, 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli qarorida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyuldagi 452-sonli “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va ular tomonidan ishlab chiqarilgan energiyani davlat hisobini yuritish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida va ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda

¹ [Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi \(2022–2026\)](#)

belgilangan vazifalarni hal etishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyani rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan PPI-3 “Energetika, energiya va resurs tejamkorligi, transport, mashina va asbobsozlik, zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika va elektron asbobsozlikni rivojlantirish”ga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bir qator mashhur chet el ilmiy markazlarida CdS, CdSe, CdTe asosidagi yupqa parda tuzilmalarning tok o‘tkazish mexanizmlari, fotoo‘tkazuvchanlik, optik spektrlari va burchak ostida o‘stirilgan CdTe asosidagi yupqa pardalarning fotovoltaik xususiyatlari batafsil o‘rganilgan bo‘lib, ular optoelektronikada qo‘llanilmoqda. Bunday ilmiy markazlar qatoriga Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti (Rossiya)¹, Ukraina Fanlar Akademiyasi Yarim o‘tkazgichlar Fizikasi Instituti², Meksikaning Gvadalaxara universiteti, AQShning Delaver universiteti³, Yaponiya Milliy Materialshunoslik Instituti, Lebedev nomidagi Fizika Instituti va Ioffe nomidagi Fizika-Texnika Instituti, shuningdek, Litva Vilnyus universiteti va boshqalar kiradi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilganidek, kadmiy xalkogenidlari asosidagi polikristall yupqa parda elementlar yuqori fotosezgirlikka ega bo‘lib, bu ularning tayyorlash texnologiyasiga bog‘liq holda o‘ziga xos chuqur sathli hajmiy lokal markazlar va kristal don chegaralarining maxsus elektron xususiyatlari bilan izohlanadi.

O‘zbekistonning mashhur olimlari fotovoltaik yupqa pardalarni tayyorlash texnologiyasi va ularning asosiy fizik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha faol ish olib borgan. Xususan, E.A. Adirovich va uning shogirdlari – T. Mirzamahmudov, Yu.M. Yuabov, shuningdek, Farg‘ona fiziklari E.I. Bilyalov, A.Ya. Afuzov, N.X. Yo‘ldashev hamda S.Z. Shamirzayev va K.M. Doshonovlar tomonidan xalkogenid yarim o‘tkazgichlar asosida yupqa parda texnologiyalari ishlab chiqilgan va ularda kuzatiladigan anomal fotovoltaik (AFV) va fotoelektret effektlar nazariy jihatdan ma‘lum darajada o‘rganilgan. M.S. Saidov, Sh.A. Mirsagatov, T.M. Razikov, M.A. Karimov, J. Ergashev va S.M. Otajonovlarning eksperimental ishlarida esa kadmiy xalkogenidlarining yupqa pardali tuzilmalarida fotoelektrik xususiyatlar hamda tok o‘tkazish mexanizmlari qarab chiqilgan. Biroq, fotovoltaik plenklar asosida tashqi maydonsiz fotoelektretlarni tayyorlash texnologiyasi mukammal yoritilgan ishlar

¹ **Saidjonov B.M.** Yo‘naltirilgan sintez va $CdSe_{1-x}S_x/CdS(ZnS)$ kolloidal ikki o‘lchovli nanostrukturalarining optik xususiyatlari – oq yorug‘lik lyuminoforlarining istiqbolli yo‘nalishlari // Kimyo fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Moskva Davlat Universiteti, 2021. - 150 bet.

² **Kunets V.P., Kulish N.R., Lisitsa M.P., Briska V.P.** Geksagonal kvant nuqtalardagi CdS_xSe_{1-x} xos nuqsonlarning fotoqizdirish modeli // Yarim o‘tkazgichlar fizika va texnikasi – Sankt-Peterburg, 2004. - №(38) 4. - B. 465-468.

³ **Rivera L.P., García E., Cardona D., Pérez-Centeno A., Camps E., Santana-Aranda M.A., Gómez-Rosas G., de Moure-Flores F., Chávez-Chávez A., Quiñones-Galván J.G.** CdTe:Sn yupqa plenklar CdTe va Sn nishonlarining bir vaqtda lazer ablatsiyasi bilan yotqizilgan // Mater. Res. Express 7 (2020).

mavjud emas. Shuningdek, yupqa polikristal plenkali tuzilmalarda tashqi maydonsiz fotoelektret holatni eksperimental va nazariy o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar ham juda kam.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya oliy ta'lim muassasasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Farg'ona politexnika institutida, xususan, institutning 2020–2025-yillardagi istiqbolli ilmiy rejasiga muvofiq «Xalkogenid birikmalarning yarim o'tkazgichli yupqa parda tuzilmalarida yangi fotoelektrik va fotovoltaik hodisalar hamda mikroelektron foto o'zgartirgichlarni yaratish» mavzusida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi CdTe:Ag, Cu, Cd va Sb₂Se₃:Se asosida uzoq vaqt relaksatsiyalanadigan yuqori fotoelektret kuchlanish generatsiyalovchi fotovoltaik yupqa pardalar olish texnologiyasining optimal rejimlarini o'rnatish hamda ularda yangi fotoelektret hodisalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ag, Cd, Cu va Se kirishmalar kiritilgan CdTe va Sb₂Se₃ asosidagi fotovoltaik yupqa pardalardan tashqi qutbllovchi maydonsiz fotoelektretlar olish.

CdTe:Ag,Cu,Cd va Sb₂Se₃:Se asosida olingan yupqa parda tuzilmalarda fotoelektret holatning shakllanish va yo'qolish kinetikasini tadqiq etish.

Ag bilan legirlangan CdTe polikristall yupqa pardalarda fotoelektret holatning shakllanish mexanizmlarini aniqlash maqsadida ulardagi yangi elektro-fizik va optik hodisalarini kompleks o'rganish.

Tadqiqotning obykti. Tadqiqot uchun oddiy shisha taglik sirtida termovakuimli bug'latish usuli bilan olingan CdTe:Ag, Cu,Cd va Sb₂Se₃:Se polikristall yupqa pardalar tanlandi.

Tadqiqotning predmeti CdTe:Ag,Cu,Cd va Sb₂Se₃:Se fotoelektret yupqa pardalar olishning texnologik jarayonlari hamda ulardagi elektrofizik, fotoelektrik va fotovoltaik hodisalardan iborat.

Tadqiqot usullari: qattiq jismlar fizikasi sohasida keng qo'llaniladigan vakuumli bug'latish, termik ishlov berish, rentgen nurlari difraksiyasi, zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi va harakatchanligini o'lchash, volt-amper, lyuks-amper, lyuks-volt, spektral xarakteristikalarini tahlil qilish usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quydagilardan iborat:

birinchi marta CdTe:Ag,Cu,Cd va Sb₂Se₃:Se asosidagi fotoelektret polikristall yupqa parda tuzilmalarini termik bug'latish usuli bilan olish texnologiyasi shisha taglik temperaturasi 250-350 °C, boshlang'ich materialning miqdori 40-50 mg, aralashmalar massasining nisbiy miqdori $\sim(2\div4,5)\cdot 10^{-3}$, $P\approx 10^{-1}-10^{-2}$ Pa vakuum sharoitida CdTe va Sb₂Se₃ bug'lanish temperaturasi mos holda $T_1\leq 933$ K va $T_2\leq 890$ K sharoitlardagi optimal rejimlari ishlab chiqilgan;

CdTe:Ag,Cu,Cd va Sb₂Se₃:Se polikristall yarim o'tkazgich yupqa pardalarning fotoelektret xususiyatlarini belgilovchi fizik omillar aniqlanib, bu hususiyatlarni tashqi ta'sirlar bilan boshqarish imkoniyatlari aniqlangan;

CdTe:Ag yupqa pardalarning V_{FEK} , fotoelektret holat, qarshiligi R_{yp} , termostimullashgan o'tkazuvchanliklarini temperaturaga bog'liqligi va fotoelektret holat relaksatsiya chiziqlari, shuningdek V_{AFK} va $I_{q,t}$ spektral xarakteristikalarini o'rganish yordamida fotoelektret holat va aralashmaviy fotoqo'zg'atishda

fotokuchlanish generatsiyasi uchun mas'ul bo'lgan chuqur sathlar faollashuv energiyalarining $E_1=1,04\pm 0,03$ eV, $E_2\approx 1,17$ eV va $E_3\approx 1,33\pm 0,05$ eV qiymatlari aniqlangan;

AFV xususiyatli CdTe:Ag, Cu, Cd va Sb₂Se₃:Se faollashtirilgan yupqa pardalarning aralashmaviy yutilish spektral sohasida fotoelektret kuchlanish generatsiyasi kuzatildi va bu aralashmalar sathining fotoqo'zg'alishi natijasida yuzaga kelishi bilan bog'liqligi V_{FEK} va I_{qt} spektral xarakteristikalarida tasdiqlangan;

ilk bor CdTe va Sb₂Se₃ asosiy materiallarning bug'lanish tezligi kamayishi bilan V_{FEK} va V_{AFK} bo'yicha fotosezgirlik spektrining maksimumlarini qisqa to'lqin sohasiga siljishi yupqa parda mikrostrukturasidagi o'zgarishlar bilan izohlanishi ko'rsatilgan;

CdTe:Ag, Cu, Cd va Sb₂Se₃:Se yupqa pardalarning fotoqutblanish jarayonida FEH tufayli yuzaga keladigan qoldiq fotoo'tkazuvchanlik aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

CdTe:Ag, Cu, Cd va Sb₂Se₃:Se asosidagi fotoelektret polikristall yupqa parda tuzilmalarni termovakuumli purkash usuli bilan olishning texnologik rejimlari ishlab chiqilgan.

CdTe:Ag, Cu, Cd va Sb₂Se₃:Se asosidagi yupqa pardalarning fotoelektrik va fotovoltaik parametrlarini arzon va samarali fotokonvertorlar talablari darajasiga mos ravishda maqsadli o'zgartirish yo'llari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy qattiq jismlar fizikasi o'lchash va tahlil usullaridan foydalanish, olingan ilmiy natijalarning yetakchi jurnallarda chop etilgan boshqa mualliflarning ishlari bilan mos kelishi, eksperimental natijalar va nazariy ma'lumotlar o'rtasidagi muvofiqlik hamda ularning sinovdan o'tgan fizik modellar doirasida talqin qilinishi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati CdTe:Ag, Cu, Cd va Sb₂Se₃:Se yupqa pardalarning tuzilishi, spektral va fotoelektrik xususiyatlari bilan ularning ishchi parametrlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi bilimlar yarim o'tkazgich polikristall yupqa pardalarda kechadigan fizik jarayonlar haqidagi tasavvurlar kengaytirilganligi bilan shuningdek eksperimental tarzda aniqlangan «muvozanatli elektr o'tkazuvchanlikning temperatura va infraqizil nurlanish bilan so'nishi» va «ionlarning termoelektrik migratsiyasi orqali anomal fotokuchlanish xususiyatni rag'batlantirish» effektlari fotoelektrik hodisalar fizikasi haqidagi ilmiy tasavvurlar boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati CdTe:Ag, Cu, Cd va Sb₂Se₃:Se yupqa pardalar asosida arzon va samarali yupqa parda elementlar – foto qabul qilgichlar va foto kovertorlarni tayyorlash texnologiyalarini yaratishda qo'llanilishi mumkinligi hamda fotosezgir yupqa pardalar va shaffof kontaktlar olish uchun ishlab chiqilgan usullar optoelektron qurilmalarni, jumladan, vidikonlar, integral ko'p elementli foto qabul qilgichlar va foto kovertorlarni yaratishda foydalanish imkoniyati ko'rsatilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. CdTe:Ag, Cu, Cdva Sb₂Se₃:Se asosida yupqa pardali polikristall tuzilmalarni olish texnologiyasini ishlab chiqish va fotoelektret xususiyatlarini tadqiq qilish natijalari asosida:

CdTe:Ag, Cu, Cdva Sb₂Se₃:Se polikristal yupqa pardalarda fotoelektret holatning hosil bo'lish mexanizmlarini, ulardagi yangi elektrofizik va optik hodisalarni har tomonlama o'rganish yo'li bilan olingan ilmiy natijalardan OT-F2-68 raqamli "Kristallarda kirishma-nuqson mikro va nano birikmalar shakllanishining mexanizmlari hamda ularning asosida keng funksional imkoniyatli ko'pqatlamli strukturalarni yaratish" nomli fundamental loyihani bajarishda qisman foydalanilgan (loyiha rahbari akademik S. Zaynabidinov, Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti, 2024-yil 29-noyabrdagi 04-2671-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalardan foydalanish fundamental loyihada o'rganilgan nanoo'lchamli yarim o'tkazgich materiallarning fizik parametrlariga temperatura, bosim va yorug'lik ta'sirlarini baholash bo'yicha olingan tajriba ma'lumotlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish imkonini bergan;

CdTe:Ag, Cu, Cdva Sb₂Se₃:Se polikristall yarim o'tkazgich yupqa pardalarning fotoelektret xususiyatlarini belgilovchi fizik omillar va bu xususiyatlarni yorug'lik, elektr maydoni va temperatura kabi tashqi ta'sirlar bilan boshqarish imkoniyatlarini aniqlash natijalaridan Davlat ilmiy dasturlari doirasida 2022-2024 yillarda "Burgut" shifrlı (yopiq) amaliy loyihani bajarishda qisman foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti, 2025-yil 9-yanvardagi 56-son ma'lumotnomasi). Bu esa uchuvchisiz uchish apparatlarida qo'llaniladigan yupqa parda tuzilmalarini tayyorlash usullarni yaratishga, shuningdek, yangi materialshunoslik va yarim o'tkazgichli tuzilmalarning optik spektroskopiyasi uchun zarur tadqiqotlarni olib borishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 11 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida taqdim etilgan va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 44 ta rasm, 9 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda 126 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati qisqacha asoslangan, tadqiqotlarning O'zbekiston Respublikasida ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi belgilangan. Dissertatsiya mavzusiga oid ilmiy ishlarning qisqacha sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, obykti, predmeti va usullari aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon etilgan,

olingan natijalar ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni joriy etish va ishni sinovdan o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Yarim o'tkazgichlarda fotoelektret effektni o'rganishning hozirgi holati”** deb nomlangan birinchi bobida CdTe va Sb₂Se₃ asosidagi fotovoltaik yupqa pardalarni tayyorlash va o'rganish texnologiyasiga oid ishlarning qisqacha tahlili keltirildi. Ushbu materiallar asosida yaratilgan polikristall yupqa pardalarni olish texnologiyasi va ularning xususiyatlarini o'rganish bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilindi. Yupqa parda tuzilmalarning elektr o'tkazuvchanlik mexanizmlari va fotovoltaik xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqildi. Ma'lum natijalarning tahliliga asoslanib, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning **“Tashqi qutblovchi maydonsiz fotoelektret holatdagi yupqa pardalarni olish texnologiyasi va ularni o'rganish usulini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida CdTe va Sb₂Se₃ asosidagi fotovoltaik yupqa pardala asosida tashqi qutblovchi maydonlarsiz fotoelektret olish texnologiyasi bayon etilgan. Ushbu texnologiya yupqa pardalarni Ag, Cu, Cd va Se kabi kirishmalar bilan legirlash orqali amalga oshiriladi, bu esa yarim o'tkazgichda chuqur sathlar hosil qilish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Ag va Cu kirishmalar tanlanishining sababi, ushbu atomlarning CdTe kristallarda nisbatan past temperaturada ($t=300^{\circ}\text{C}$) diffuziyalanishidir. CdTe kristalidagi Ag va Cu atomlari uch xil zaryad holatiga ega bo'lishi mumkin: ulardan ikkitasi akseptor xususiyatiga ega bo'lib, faollashuv energiyalari $E_{A1}=E_v+0,15\text{ eV}$ va $E_{A2}=E_v+0,32\text{ eV}$, uchinchi esa sayoz sath – donor hisoblanadi. CdTe tarkibidagi ortiqcha Cd elementi ikkita chuqur donor sath, uning vakansiyasi esa ikki chuqur akseptor sathlar hosil qilishi mumkin. Sb₂Se₃ kristallaridagi Se kirishma atomlarining harakati o'rganilmagan. Biroq, ushbu ishda qo'llanilgan Se bilan legirlash usuli orqali Sb₂Se₃ qatlamda yaxshi FEH kuzatilgan, demak, bu materialdagi ortiqcha Se chuqur sath hosil qiladi. Fotoelektret yupqa pardalarni olish uchun vakuum qurilmasi ishlatilgan (**1-rasm**), uning ishchi hajmi kvartslar qopqog' bilan cheklangan, qoldiq gaz bosimi $10^{-1}-10^{-5}\text{ mm.sim.ust.}$ intervalda saqlangan. Yarim o'tkazgich va kirishmalarni bug'latish uchun tigellatish usullari ishlatiladi. Yupqa pardalarning qalinligi va legirlash darajasi taglik va bug'latgichlar o'rtasida joylashgan nikel to'siqch tomonidan nazorat qilindi. Tagliklar kalpakka o'rnatilgan pech yordamida isitiladi.

Ko'p sonli parametrlarga, masalan, materiallarning (yarim o'tkazgich va kirishma) boshlang'ich massasi, bug'lanish tezligi va vaqti, vakuum darajasi, taglik temperaturasi, bug'lanish burchagi va parda qalinligi fotoelektret pardalar tayyorlashning optimal texnologik rejimi berilgan.

Yarim o'tkazgich (CdTe yoki Sb₂Se₃) va kirishma (Ag, Cu, Cd yoki Se) materiallarning boshlang'ich massa nisbati $\sim(2\div4,5)\cdot 10^{-3}$ bo'lgan holda, termal bug'latish usuli bilan 10^{-4} mm.sim.ust. vakuumda shisha yoki kvars taglikka, 520÷570 K gacha qizdirilgan holda yotqizildi. Bunda bug'lanish burchagi 40° bo'lib, yupqa pardalar qalinligi CdTe uchun 1 mkm va Sb₂Se₃ uchun 1,5 mkmni tashkil etdi.

FEH yuzaga keluvchi AFK qatlamlarni legirlashning 3 usuli o'rganildi: a) taglikka qalinligi 1÷3 Å bo'lgan yupqa Ag yoki Cu qatlam yotqizilib, so'ngra ushbu yuzaga kondensatsiya tezligi $\vartheta=0,3$ nm/s bo'lgan CdTe AFK yupqa parda hosil qilindi. Agar ϑ kattaroq bo'lsa, CdTe namunalari faqat qo'shimcha termik ishlovdan so'ng yuqori sifatli FEH hosil qiladi. b) CdTe yoki Sb₂Se₃ qatlamlarni taglikka



1-rasm. Bug'latgich qurilmasi ishchi kamerasining ko'rinishi (a) va bir yupqa parda fotoelektret – FEH yupqa pardaning umumiy ko'rinishi (b); 1 – kalpak; 2 – taglik; 3 – ekran; 4 – bug'latgichlar.

kondensatsiya qilish jarayonida legirlash alohida tigeldan $\vartheta_{\text{bug}'}=1,3\div3\cdot 10^{-6}$ g/sm² tezlik bilan Ag, Cu, Cd yoki Se yotqizish orqali amalga oshirildi. FEH sifati yuqori bo'lgan yupqa pardalar CdTe va Sb₂Se₃ bug'lanish temperaturalarini mos ravishda $T_1\leq 933$ K va $T_2\leq 890$ K bo'lganda, kondensatsiya vaqtlari mos ravishda 100 va 60 min. davom etganda olinadi. Ag, Cu, Cd yoki Se kirishmalar yarim o'tkazgich birikmalar yotqizila boshlaganidan keyin, mos ravishda 30 va 20 minutdan kechiktirilmasligi kerak. c) Yarim o'tkazgich birikmalar (CdTe yoki Sb₂Se₃) va kirishmalar (Cd yoki Se) yuqorida ko'rsatilgan massa nisbatlarida kukun shaklida ehtiyotkorlik bilan aralastirilib, so'ngra vakuumda (10^{-4} mm.sim.ust.) taglik temperaturasi $T_{\text{tag}}=470$ K bo'lgan sharoitda bir soat davomida qizdiriladi. Hosil bo'lgan CdTe:Cu yoki Sb₂Se₃:Se aralashmalar mos ravishda 893 K va 873 K temperaturalarda qizdirilgan tagliklarga bug'latilib, bug' kondensatsiyasi orqali fotoelektret yupqa pardalar hosil qilindi (**1-2 jadvallar**).

1, a-jadval.

Fotoelektret yupqa parda	V_{AFK}, V	V_{FEK}, V	Relaksatsiya vaqti $V_{FEK}, min.$
CdTe:Ag	560	70	100
CdTe:Cd	545	65	130
CdTe:Cu	460	45	70

1, b-jadval.

Yupqa parda		t, °C								
		150°	180°	210°	230°	250°	275°	300°	325°	350°
CdTe:Ag	V_{AFK}, V	215	265	320	460	525	550	580	320	210
	V_{FEK}, V	15	28	43	52	62	69	78	36	14
CdTe:Cu	V_{AFK}, V	195	220	240	275	310	380	455	270	195
	V_{FEK}, V	10	17	22	28	35	39	45	14	8
CdTe:Cd	V_{AFK}, V	205	268	315	457	514	532	556	280	200
	V_{FEK}, V	12	17	21	31	44	51	62	21	11
CdTe	V_{AFK}, V	200	260	305	450	510	525	550	300	205

1, c-jadval.

Yupqa parda		$\vartheta, nm/s$								
		2,4	1,1	0,55	0,37	0,28	0,22	0,19	0,16	0,14
CdTe:Ag	V_{AFK}, V	205	250	290	245	380	440	510	580	580
CdTe:Cd	V_{FEK}, V	4	8	13	19	26	41	61	78	78
CdTe	V_{AFK}, V	200	235	280	340	360	425	500	550	550

2, a-jadval.

Yupqa parda		t, °C							
		150°	175°	200°	225°	250°	275°	300°	325°
Sb ₂ Se ₃ :Se	V_{AFK}, V	95	200	335	448	512	455	352	213
	V_{FEK}, V	5	12	27	41	58	43	22	8
Sb ₂ Se ₃	V_{AFK}, V	92	210	330	445	505	450	345	205


2, b-jadval.

Yupqa parda		$\vartheta, nm/s$						
		2,4	2	1,6	1,2	0,8	0,4	0,1
Sb ₂ Se ₃ :Se	V_{AFK}, V	115	202	280	348	420	515	515
	V_{FEK}, V	9	16	24	31	47	62	62
Sb ₂ Se ₃	V_{AFK}, V	111	200	278	345	415	505	505

Ko'plab namunalar ustida o'tkazilgan FEH olish tadqiqotlari uchun ikkinchi usul eng samaralidir. Ushbu usullar legirlangan kirishmalar konsentratsiyasini boshqarishga imkon beradi. Shu bilan birga, yupqa pardalar eng aniq va barqaror fotoelektret xususiyatlariga ega bo'ladi. Birinchi usul bir xil va nazoratga yaroqli namunalarni olish imkonini beradi, bu legirlovchi kirishmalar rolini aniqlash uchun zarurdir. Ikkinchi usul esa fotoelektret yupqa pardalarning ma'lum qismlarini faollashtirishga imkon beradi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, eng katta fotoelektret kuchlanishga ega bo'lgan yupqa pardalar taglikka qaragan quyi qatlamlarga mos legirlangan kirishmalar kiritilganda olinadi. Shu jarayonda qalinlik bo'ylab kirishma konsentratsiyasida to'liq o'zgarishlar hosil bo'ladi. Yupqa parda markaziy sohalarining kuchli legirlanishi natijasida hosil bo'ladigan anomal fotokuchlanishlar sezilarli darajada kamayadi, shuning uchun fotoelektret xususiyatlar kamayadi. Yangi tayyorlangan fovoltaik yupqa pardani legirlovchi kirishmalarning to'yingan bug'ida termik ishlov berish orqali fotoelektret hosil qilishga bo'lgan urinish muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Fotoelektret CdTe:Ag, Cu, Cd va Sb₂Se₃:Se yupqa pardalarni tayyorlashning asosiy xususiyatlari batafsil tahlil qilindi. Xususan, FEH ning kondensatsiya tezligi va taglik temperaturasiga bog'liqligi o'rganildi.

Faollashtirilgan fovoltaik yupqa pardalarda FEH zaryadini o'lchash uchun fotoqutbsizlanish va termostimullangan qutbsizlanish toklarini kompensatsiya usuli qo'llanildi. Tashqi maydonsiz fotoelektretlar qutbsizlanishining asosiy xususiyatlari keltirilgan. V_{FEK} , V_{AFK} va qisqa tutashuv toki $I_{q.t.}$ elektr kuchaytirgichlar Y1-2, Y5-9, CK-2M va elektrostatik voltmetrlar C-50, C-90 yordamida o'lchangan (2-rasm). Sekin fotoqutblanish jarayonlarini o'rganishda sxema vaqti $\tau_{sx} = R_{sx} \cdot C_{sx}$ qiymati hisobga olingan, bu yerda R_{sx} va C_{sx} – sxemaning qarshiligi va sig'imi. Yorug'lik manbai sifatida OИ-24 tipidagi yoritgich ishlatilgan. Namuna sirtidagi yoritilish darajasi neytral yorug'lik filtrlari bilan yorug'lik oqimini susaytirish yoki yorug'lik manbai va yupqa parda orasidagi masofani o'zgartirish orqali o'lchangan. Yuqori yoritilish namuna sirtida lampa tolasini fokuslash yo'li bilan olingan. Maksimal yoritilish $3,5 \cdot 10^5$ lx gacha, minimal esa bir necha lx bo'lgan. Yupqa parda qizib ketishining oldini olish uchun termal filtr yoki distillangan suvdan foydalanilgan. Fotoelektret yupqa pardalar asosiy parametrlarining temperaturaga bog'liqligini aniqlash uchun kriostat ishlatilgan.

Dissertatsiyaning "Fovoltaik plenkalarda fotoelektret holatni yuzaga kelishi va uzoq muddatli relaksatsiyani vaqtli kinetikasini o'rganish" deb nomlangan uchinchi bobida fotosezgirlik ortish jarayonining kinetikasini o'rganish orqali qutblanish masalalari va FEH zaryadini o'lchash metodining xususiyatlari



2-rasm. Fotoelektret yupqa pardaning fotoqutblanish (a) va qorong'ulikdagi qutblanishining (b) sxematik diagrammasi. Ek – ekran, DKM – doimiy kuchlanish manbai, 1, 2 – kontaktlar, K – kalit.

ko'rib chiqildi. Faollashtirilgan yupqa pardalarda FEHning yuzaga kelish va yo'qolish mexanizmlari tashqi qutblovchi maydon ishtirokida va ishtirokisiz tahlil qilindi. CdTe:Ag, CdTe:Cu, Sb₂Se₃:Se va CdTe:Cd yupqa pardalarda fotoqutblanish va FEK relaksatsiya kinetikasi o'rganildi. Olingan strukturalarda qorong'ulikdagi elektret holat yuzaga kelishishining mexanizmi muhokama qilindi.

Tayyorlangan texnologiya asosida ishlab chiqilgan fotoelektretlar, mavjudlaridan farqli o'laroq, tashqi elektr maydonsiz ham qutblanadi. Ularning fotoqutblanishi elektrodning ochiq yoki yopiq holatida amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda, fotoelektret yupqa parda elektr o'lchov asbobiga ulangan holda, yorug'lik manbai bilan $L=8 \cdot 10^4$ Vt/sm² intensivlikda bir necha minut davomida yoritiladi. Natijada, T=293 K temperaturada $V_{AFK}=500$ V hosil bo'ladi. Yoritish to'xtatilgach, yupqa parda elektrodlarini qisqa tutashtirish orqali V_{AFK} ni yo'qotish uchun bir necha sekund davomida tutashtiriladi, so'ngra yupqa parda yana o'lchov asbobiga ulanadi. O'lchov asbobi yupqa pardada FEH yuzaga kelishiga mos keluvchi qoldiq fotokuchlanish V_{FEK} ni qayd etadi. Vaqt o'tishi bilan V_{FEK} qiymati ortib boradi, masalan CdTe:Ag yupqa pardalarda $(1 \div 2) \cdot 10^2$ sekunda to'yinishga erishiladi. Dastlabki ekspozitsiyaga qarab, V_{FEK} qiymati 70–90 V gacha yetadi. Bunda V_{FEK} ishorasi doim V_{AFK} ishorasi bilan mos keladi. Agar fotoqutblanish yupqa parda kontaktlari qisqa tutashtirilgan sharoitda amalga oshirilsa, V_{FEK} ishorasi V_{AFK} ga teskari bo'ladi va V_{FEK} qiymati 50–60 V ni tashkil etadi.

Fotovoltaik yupqa pardalarning qutblanishi odatiy usulda, ya'ni tashqi qutblovchi maydon qo'yish va bir vaqtning o'zida yorug'lik ta'siri ostida amalga oshirildi. Agar $E_{tash.} \uparrow E_{AFK}$ bo'lsa, V_{AFK} va V_{FEK} qiymatlari ortadi. Tashqi maydonning qarama-qarshi qo'yilishida esa anomal kuchlanishlarning qiymatlari kamayadi. Hatto ayrim hollarda ularning ishorasida inversiya kuzatiladi. Tayyorlangan yupqa pardalardagi qorong'ulikdagi elektret kuchlanish V_{FEK} qiymatining 30–40% ini tashkil etdi va uning qutblanishi $E_{tash.}$ qutbi bilan mos keldi.

Fotoelektret kuchlanishning ortishi quyidagi munosabat bilan ifodalanadi:

$$V_{FEK}^{(1)} = V_{FEK}^{ST} (1 - \exp(-t / \tau_M)), \quad (1)$$

bu yerda $\tau_M = \epsilon \epsilon_0 / \sigma$ — Maksvell relaksatsiyasi vaqti, V_{FEK}^{ST} — fotoqutblanish chizig'ining to'yinish sohasidagi V_{FEK} qiymati, $V_{FEK}(t)$ — FEK ning oniy qiymati, (1) da namunaning t vaqtdagi fotoqutblanishini tavsiflaydi. CdTe:Ag, CdTe:Cd, CdTe:Cu va Sb₂Se₃:Se yupqa pardalarning qutblanish chiziqlari eksponensial xarakterga ega bo'lib, to'yinishga intiladi. Bunday holda, maksimal V_{FEK} qiymatlari va to'yinishga erishish vaqti turli kompozitsiyadagi yupqa pardalar uchun farq qiladi.


Shuni ta'kidlash kerakki, yupqa pardani yoritishda elektr o'tkazuvchanlik ham, shuningdek, namunada τ_M ham o'zgaradi. Shuning uchun FEKning relaksatsiyasi (1) ga muvofiq, lekin o'zgaruvchan τ_M qiymat bilan bo'ladi. Elektr o'tkazuvchanlik relaksatsiya vaqti $\tau_{rel.}$ bilan eksponensial ravishda o'zgarib turishini taxmin qilib, quyidagini olamiz.

$$\ln \frac{V_{FEK}^{ST}}{V_{FEK}^{ST} - V_{FEK}} = t \cdot \frac{1}{\tau_M} = t \cdot \frac{\sigma}{\varepsilon \varepsilon_0} \left(1 - \frac{\sigma^{ST} - \sigma}{\sigma^{ST}} \cdot e^{-\frac{t}{\tau_{rel}}} \right). \quad (2)$$


3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, $Sb_2Se_3:Se$ (shuningdek, $CdTe:Ag,Cd,Cu$) yupqa pardalarning barcha fotoqutblanish chiziqlari tabiiy relaksatsiyalanib, (1) formulaga muvofiq to‘yinish sohasi mavjud. To‘yinish sohasidagi fotoelektret kuchlanishning qiymati statsionar fotoelektret kuchlanishga teng V_{FEK}^{ST} . Fotoqutblanish chizig‘idan kelib chiqadiki, yorug‘lik intensivligining turli qiymatlarida fotoelektret kuchlanishning statsionar qiymati turli xil qutblanish vaqtlari uchun o‘rnatiladi. Bundan tashqari, yorug‘lik kamayishi bilan fotoqutblanish vaqti ortadi, ya‘ni fotoelektret yupqa pardaning $V_{FEK}(t)$ qutblanish chiziqlari tashqi maydonga ega an‘anaviy fotoelektretlarning o‘xshash chiziqlari bilan sifat jihatidan bir xil. Yupqa pardalarning fotoqutblanish chiziqlari (2) dan kelib chiqadigan eksponensial bog‘liqlikdan biroz og‘ishini ko‘rsatadi.

Fotoelektret zaryadi hosil bo‘lishining muhim shartlaridan biri o‘zaro o‘rinlashtirish qonunining bajarilishidir. Bu qonun shuni bildiradiki, ma‘lum bir vaqt momentida fotoelektretning zaryad qiymati yorug‘lik intensivligi L va qutblanish vaqti t ga alohida-alohida emas, balki ularning ko‘paytmasi orqali aniqlanadi: $Z=L \cdot t$, ya‘ni ekspozitsiya orqali. Bu qonunning bajarilishi izopaak fotoqutblanish yordamida tekshiriladi. Izopaak — bu fotoelektret zaryadi doimiy bo‘lganda ekspozitsiya Z va yorug‘lik intensivligi L yoki ekspozitsiya vaqti t o‘rtasidagi bog‘lanishni ifodalovchi chiziqdir. Agar namunada lyuks-amper xarakteristika (LAX) chiziqli bo‘lsa, izopaaka gorizontaal chiziq shaklida ifodalanadi (3, b-rasm).

Shuni ta‘kidlash joizki, barcha o‘rganilgan yupqa pardalarda lyuks-volt xarakteristika $V_{AFK}(L)$ va lyuks-amper xarakteristika $I_{q.t.}(L)$ yorug‘lik intensivligi $L < 5 \cdot 10^4$ lx bo‘lgan sohada chiziqli ko‘rinishga ega. Biroq, yorug‘lik intensivligi $L = 5 \cdot 10^4 \div 3 \cdot 10^5$ lx oralig‘ida V_{AFK} va V_{FEK} deyarli to‘yinishga yetadi (4-rasm).



3-rasm. Intensivlikning $L=1-8 \cdot 10^{-2}$, $2-4 \cdot 10^{-2}$, $3-2 \cdot 10^{-2}$, $4-4 \cdot 10^{-2}$, $2-1.1 \cdot 10^{-2}$ Vt/sm^2 qiymatlarida, $T=293$ K temperaturada $Sb_2Se_3:Se$ fotoelektret yupqa pardaning fotoqutblanish grafigi (a), qutblanish izopaak grafigi (b, 1) va LAX (b, 2) va intensivligi.




4-rasm. Tipik lyuks-volt (a) va lyuks-amper (b) xarakteristikalar: qisqa tutashuv toki $I_{q.t.}$ ning yorug‘lik intensivligi L ga bog‘liqligi — CdTe:Ag fotovoltaik yupqa parda.

Relaksatsiya chiziqlari ham eksponensial bog‘liqlik bilan tavsiflanadi

$$V_{FEK}^{(1)} = V_{FEK}^{ST} \exp\left\{-\frac{t}{\tau^*}\right\}, \quad (3)$$

bu yerda τ^* — chuqur kirishma sathlarda asosiy bo‘lmagan zaryad tashuvchilar uchun xarakterli yashash vaqti bo‘lib, uning qiymati chiziqlarning turli qatlamlar uchun turlicha bo‘ladi (**5-rasm**). Uzoq vaqtli relaksatsiya davrida $\tau^* = 1,2 \div 2,4 \cdot 10^3$ s ga teng bo‘ladi. Relaksatsiya chizig‘ining boshlang‘ich qismi $V_{FEK}(\tau = \tau^*)$ ning nisbatan tez pasayishini ko‘rsatadi va bu, ehtimol, Maksvell relaksatsiya vaqti



5-rasm. AFK yupqa pardalar uchun CdTe:Ag (1, 2, 3), CdTe (4) (a) va bir vaqtning o‘zida olingan ikkita CdTe:Ag yupqa pardalar uchun V_{FEK} qutbsizlanish chiziqlari uchun V_{AFK} relaksatsiya chiziqlari (b). $T=293$ K.

bilan bog‘liq. Shu bilan birga, bu yupqa pardada chuqur bo‘lmagan sathlar mavjudligini ko‘rsatishi mumkin. Ikkinchi qism esa fotokuchlanishning uzoq vaqtli relaksatsiyasi ($\tau = \tau^*$) bilan bog‘liq bo‘lib, bu yupqa pardadagi chuqur sathlarda zaryad tashuvchilarni tutilishi bilan bog‘liq.


6-rasmda CdTe:Cd, CdTe:Ag va $Sb_2Se_3:Se$ yupqa pardalarning xona temperaturasida $L = 8 \cdot 10^{-2}$ Vt/sm² yorug‘lik intensivligi bilan qo‘zg‘atish vaqtida

$\tau_{\text{bosh.}}$ va τ^* ning fotoqutblanish vaqtiga bog'liqligi ko'rsatilgan, ular uchun τ^* mos ravishda 40-45, 30-35 va 20-25 minut qiymatlarga yetdi, $\tau_{\text{bosh.}}$ dastlab bir necha daqiqa edi. E'tiborli jihati, temperaturaning pasayishi bilan τ^* ning qiymati keskin oshdi va soatlarda o'lchandi va $\tau_{\text{bosh.}}$ qiymati temperaturaga kamroq bog'liq edi. τ^* ning eksperimental qiymati quyidagi ifodadan foydalanishga imkon beradi


